

**YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA  
TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR TASNIFI VA  
MOHIYATI.**

*Mamatkulov Kamoliddin Galabayevich,*

*Abdurasulov Muhammadqodir,*

*Andijon viloyati yuridik texnikumi o’qituvchilari.*

**ANNOTATSIYA** Mazkur maqolada yuridik xizmatlar faoliyati bosqichlari, yuridik xizmat ko‘rsatish markazlariga oid normativ- huquqiy xujjatlarni qo’llashning nazariy-huquqiy muammolari yoritadi. Shu bilan bir qatorda, hozirda yuridik xizmatlar orqali erishilgan natijalar, tendensiyalar va sohaga oid tadqiqotchi-olimlarning fikriy -tahlillari ham korib chiqiladi. Maqola songida jamiyatimizning yuridik xizmatlar faoliyatida huquqiy samaradorligini oshirish uchun takliflar va ularga yechimlar tavsiflanadi

Kalit sozlar: yuridik, xizmat, markaz, xodim, davlat organi, tashkilot, faoliyat, nizo.

Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi.[1] Yangi O’zbekistonda dastlab yuridik xizmat faoliyati O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2733-soni Qarori va boshqa normativ huquqiy xujjatlar bilan tartibga solindi.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733-soni qarorida " Yuridik xizmat davlat organi va tashkiloti faoliyatini huquqiy ta’minalash maqsadida qonunchilikda belgilangan me’yor va mezonlarga muvofiq majburiy tartibda tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim" deb ta’rif berilgan.[2] Yuqoridagi normativ-huquqiy xujjatga muvofiq davlat organi va tashkiloti faoliyatini olib borishda qonun ustuvorligini ta’minalash va huquqni qo’llash amaliyotida asosiy bo’g’in,ya’ni tuzilma ekanligini anglash mumkin. Yuridik xizmat xodimini xususiyatlaridan biri "Yuridik xizmat bevosita davlat organi va tashkilotining rahbariga bo’ysunadi".[3] Yangi O’zbekistonda yuridik xizmati xodimlarini qonun hujjalariiga asosan kafolatlangan

huquqlari vujudga keldi. O'zbekistonlik yuridik fanlar bo'yicha olim H.Yunusov "Yuridik xizmat va faoliyatiga oid maqolasida AQSH misolida quyidagi fikrlarni bildirgan."AQSHda yuridik xizmat va kasbiy faoliyat davlat va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida rivojlanib keldi hamda mamlakatdagi eng sharaflı kasbga aylandi. Mumtoz amerika falsafasiga ko'ra, kuchli iqtisodiy taraqqiyot barqaror bo'lsa, o'sha erda xo'jalik nizolari ham ko'payadi va yuristlarga ehtiyoj ortib boraveradi. Qonun ustivor bo'lgan jamiyatlarda har qanday nizolarni tinch yuridik vositalar orqali yechish an'ana bo'lib qolaveradi va yuristlarning huquqiy tartibot hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ortib boradi".[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" 2017-yili 19-yanvardagi PQ-2733-sonli Qarori soha rivojida tubdan o'zgarishlarga omil bo'ldi. Qarorda soha tanqidiy o'rganilib, quyidagi kabi imtiyozlar berilgan edi: davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari xodimlariga adliya organlari xodimlariga belgilangan martaba darajalarini berish, ko'p yillik xizmat uchun ustamalarni to'lash tartibi tatbiq etilishi, yuridik xizmat xodimi sifatidagi mehnat staji xodim boshqa davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga ishga o'tganda martaba darajalari va ko'p yillik xizmat ustamalarini to'lash uchun mo'ljallangan mehnat staji hisobiga olinishi, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan yuridik xizmat xodimlariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmasligi, davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining mazkur mutaxassislik bo'yicha uch yillik stajiga ega bo'lgan xodimlari, lisensiya olish uchun advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs sifatida malaka imtihonida tegishli stajirovka o'tmasdan ishtirot etish huquqiga ega bo'lishi, yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirilishiga yo'l qo'yilmasligi Qarorda yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirilishiga yo'l qo'yilmasligi nazarda tutilsada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 19 maydagi PF-5997-son Farmoni ijrosi yuzasidan,[6]shuningdek davlat organlari va tashkilotlariga sifatli yuridik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

2020 yil 17-sentyabrdagi 561-sonli "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq respublikani uchta hududida yuridik xizmat shtat birlklari ayrim tashkilotlarida qisqartirilib yuridik xizmat ko'rsatish markazlariga o'tkazildi.[7]Eksperiment muvaffaqiyatli deb topildi.Shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-iyunda qabul qilingan PQ-5168-sonli "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq yuridik xizmat ko'rsatish markazlari butun respublika hududida tashkil etildi.[8]Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etilishida yuridik xizmat xodimini tashkilot rahbariyatidan mustaqiligidir, korrupsiyon omillarni bartaraf etishda yuridik xizmat ko'rsatish markazlari mustaqiligi ijobiy natija beradi. Tadqiqotchi F.Tojiyev sohaga oid maqolasida "Yuridik xizmat markazlari faoliyat ko'rsatishi davlat organlari tomonidan noqonuniy harakat yoki harakatsizliklar sodir etilishini, qarorlar qabul qilinishini oldini oladi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishi holatlarining kamayishiga, sudgacha va sud tartibidagi nizolar kamayishiga, fuqarolarning davlat va boshqaruv organlariga ishonchi ortishiga olib keladi"[9]

F.Tojiyevning fikrini ma'qullagan holda,bunday ma'suliyatli vazifalarni bajaruvchi yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlarda shtatdagi xodimlarga nisbatan ish hajmga e'tibor qaratamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagি PQ-173-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida yuridik xizmat bilan ta'minlanmagan davlat organlari va tashkilotlari tuman (shahar) bo'linmalari, davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari, mакtabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalari qamrab olinishi grafigiga asosan misol uchun Andijon viloyatida 16 markazga- Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi, turizm va madaniy meros, sportni rivojlantirish hamda oila va xotin-qizlar bo'limlari, davlat soliq inspeksiyalari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari soni 110 ta, Davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 767 ta, mакtabgacha

ta'lim tashkilotlari soni 546 ta, ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar soni 97 ta va har bir tuman (shahar) 19 ta davlat organlarining tuman (shahar) bo'linmalarini qamrab oladi. Yuqoridagi normativ-huquqiy xujjatlarga asosan xulosa o'rnida shuni ta'kidlashim mumkin, davlat organi va tashkilotiga xizmat ko'rsatgan yuridik xizmati markazi xodimlarini ijtimoiy-huquqiy ximoyasi hamda sifatli ish unumdarligi uchun xodimlar shtat birligini ish hajmini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi <https://lex.uz/>
- 2.PQ-2733-son 19.01.2017. Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/3098964>
- 3.PQ-2733-son 19.01.2017. Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/3098964>
- 4.H.Yunusov «YURIDIK XIZMAT VA KASBIY FAOLIYAT: MEHNAT BOZORIDAGI IMKONIYATLAR, YURIDIK FAOLIYAT YO'NALISHHLARI VA ADVOKATLIK LISENZIYASI (AQSH TAJRIBASI)» | YURIST AXBOROTNOMASI <https://yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/239/220>
- 5.PQ-2733-son 19.01.2017. Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/3098964>
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 19 maydagi PF-5997-son Farmoni
- 7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17-sentyabrdagi 561-sonli "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-iyunda qabul qilingan PQ-5168-sonli "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
- 9.F.Tojiyev. «YURIDIK XIZMATLAR FAOLIYATIDA HUQUQIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI: O'ZBEKISTON MISOLIDA» | YURIST AXBOROTNOMASI <https://www.yuristjournal.uz/index.php/lawyer-herald/article/view/356/319>
- 10.Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida Nizom (O'zR Prezidentining 29.06.2021 y. PQ-5168-son qaroriga 4-ilova)